

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

RUZIYEV JAMSHID ERKINOVICH

ISHQORIY YER METALLARINING TEZKOR NAZORATI UCHUN
FOSFORNOMOLIBDENLI IONOFORLAR ASOSIDA ION SELEKTIV
ELEKTRODLAR ISHLAB CHIQISH VA ULARNI O'RGANISH

02.00.02 – Analitik kimyo

KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on chemical sciences**

Ruziyev Jamshid Erkinovich

Ishqoriy yer metallarining tezkor nazorati uchun fosfornomolibdenli ionoforlar asosida ion selektiv elektrodlar ishlab chiqish va ularni o‘rganish..... 3

Рузиев Жамшид Эркинович

Разработка и исследование ионоселективных электродов на основе фосфоромолибденных ионофоров для оперативного мониторинга щелочноземельных металлов 19

Ruziev Jamshid Erkinovich

Development and research of ion-selective electrodes and basic phosphomolybdate ionophores for operational monitoring of alkaline earth metals 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

RUZIYEV JAMSHID ERKINOVICH

ISHQORIY YER METALLARINING TEZKOR NAZORATI UCHUN
FOSFORNOMOLIBDENLI IONOFORLAR ASOSIDA ION SELEKTIV
ELEKTRODLAR ISHLAB CHIQISH VA ULARNI O'RGANISH

02.00.02 – Analitik kimyo

KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/K663 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmanov Ilhom Ergashboyevich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sultonov Marat Mirzayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Smanova Zulayxo Asanaliyevna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 ilmiy kengashning 2024-yil «29» fevral soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi 220-xona. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-51, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3- raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «21» fevral kuni tarqatildi.
(2024-yil « » dagi № raqamli reyestr bayonnomasi.)



A.M. Nasimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.R. Uzoqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.n., (PhD)

E. Abduraxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida bugungi kun sanoat va qishloq xo'jaligi hamda ularning jadal rivojlanayotgan, nazorat-tahlil bo'linmalariga ega bo'lgan mamlakatlarda metall ionlarini kuzatishning tezkor, aniqlik darajasi yuqori, nisbattan sodda hamda iqtisodiy jihatdan arzon bo'lgan usullarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Fosfornomolibdenli kislotalar asosida olingan elektrod faol birikmalarning (EFB) yetarli darajada barqarorligi tufayli ular funksiyalarining keng doiradagi chiziqiligi va kationlarni past konsentratsiyada aniqlash chegarasi ta'minlanadi. Bu jihatdan geteropoli kislotalar asosida yuqori samarali ion selektiv elektrodlar (ISE) olish jarayonining qonuniyatlarini o'rganish va optimal sharoitlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan, sanoat hamda farmatsevtika mahsulotlari, tuproq, yer osti va yer usti suvlari tarkibidan ISE lar yordamida Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2} kabi ionlarni aniqlash usullari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda noorganik ionlarning ISE uchun yuqori samarali EFB lar yaratish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, kompleks hosil qiluvchi ionoforlar asosida tabiiy va texnik obyektlar, ichimlik va oqova suvlari tarkibidagi turli metall ionlarining nazoratida foydalaniladigan elektrod faol birikmalarni sintezi jarayoni qonuniyatlarini tekshirish, shuningdek, olingan birikmalar asosida selektiv plyonkalar ishlab chiqish va turli metall ionlarini aniqlovchi sezgir elektrodlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatning turli sohalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob beradigan yangi turdagi nazorat usullari va asboblarini ishlab chiqarish va ularni xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga joriy etishga katta e'tibor qaratilgan va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali ichki bozorni import o'rnini bosuvchi usul va asboblar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, shu asosda yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish, korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni bajarishda suyuq texnologik chiqindilar, oziq-ovqat mahsulotlari, farmatsevtik preparatlar hamda yer osti va yer usti suvlari tarkibidagi metall ionlarini nazorat qilish uchun zamonaviy, ishonchli, sezgirligi yuqori, iqtisodiy jihatdan arzon va selektiv ISE lar yaratish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston¹ Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz ta'lim

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni.

sifatini va fan samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son qarorlari, kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari”, 2018 yil 25 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3983-sonli qarori, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Atrof-muhit obyektlari (tuproq, suv, o‘simliklar) va suyuq texnologik chiqindilar tarkibini analiz qilish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoda alohida e‘tiborga molikdir. Suyuq va qattiq chiqindilar hamda oqova suvlar tarkibidan ionlarni aniqlashning xromatografik, elektrokimyoviy va spektrofotometrik usullari jahonning yetakchi olimlari S.I. Merenbloom, L. Satyanarayana, Y. Zhao, N. Abramova, S. Levichev, A.A. Sathyapalan, F. Mizani, F. Rajabi, E.M. Raxmanko, Y.V. Matveychuk, V.V. Yegorov, V.A. Nazarov va E.B. Okayevlar tomonidan taklif etilgan. Respublikamiz olimlari T.Q.Xamroqulov, Sh.T.Talipov, A.M.Nasimov, A.M.Gevorgyan, Z.A.Smanova va boshqalar suyuq gazsimon sanoat chiqindilari tarkibiy qismlarining monitoringi uchun datchiklar yaratish va analiz usullari ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Adabiyot manbalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, suyuq muhitdan Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} , Ba^{+2} va boshqalarni aniqlash maqsadida ISE lar uchun yuqori sezgir, selektiv va iqtisodiy jihatdan arzon EFB lar ishlab chiqish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar soni cheklangan hamda Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} , Ba^{+2} kabi kationlar uchun ISE lar yaratish muammosi kam o‘rganilgan. Shuning uchun asosida Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2} ionlarini aniqlashda qo‘llaniladigan yuqori sezgir va selektiv bo‘lgan ISE larni yuqori ish resursiga ega bo‘lgan holda ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-84 “Kimyoviy sensorlarning yangi avlodi uchun gazsezgir materiallarni yaratishning nazariy asoslarini tadqiq qilish” mavzusidagi (2016-2020 yy) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ishqoriy yer metallarining tezkor nazorati uchun fosfornomolibdenli ionoforlar asosida ionselektiv elektrodlar ishlab chiqish va ularning xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

fosfornomolibden kislota va gidroksidi, ishqoriy yer metallar ionlari asosida yuqori samarali EFB komponentlarining tarkibi va nisbatlarini aniqlash;

ion selektiv elektrodlar uchun nanokompozit elektrofaol plyonkalarining sintezi qonuniyatlarini o‘rganish; ion selektiv materiallarning sirt yuza tuzilishini hamda g‘ovaklik darajasini o‘rganish;

ion selektiv materiallarning sirt yuza tuzilishini hamda g'ovaklik darajasini o'rganish;

ishqoriy va ishqoriy yer metallar ionlarini keng pH oralig'ida aniqlaydigan yuqori unumdorlik, sezgirlik, selektivlikka ega ISE larni yaratish;

yaratilgan ISE lar yordamida Mg^{+2} , Ca^{2+} , Ba^{2+} va Sr^{2+} ionlarini yer osti suvlari tarkibidan aniqlashning metodikasini ishlab chiqish va statistik baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida yer osti va yer usti suvlari, suyuq holdagi sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilari, metall ionlarining standart aralashmalari tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini geteropoliatsetatlar va metall ionlaridan iborat elektrod faol materiallar va ular asosida ishlab chiqilgan ion selektiv elektrodlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda potensimetriya (ionometriya), differensial termal tahlil, XRF spektrometr, IQ-spektroskopiya va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) kabi fizik-kimyoviy tadqiqot usullar majmuasidan hamda statistik usullardan foydalanilgan

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

geteropolikislotalar (dodekamolibdenofosfat, dodekavolframofosfat) asosida ishqoriy yer metallari ionlarining selektiv elektrodleri uchun yuqori sezgir membranalar sintezining optimal sharoitlari aniqlangan;

sintez qilingan Ca^{2+} -FMK, Ba^{2+} - FMK Sr^{2+} -FMK va Mg^{2+} -FMK tarkibli kompozitlarning ionofor sifatida yuqori elektroanalitik xususiyatlarga ega ekanligini isbotlagan;

elektrod foal birikmalarning tarkibi va xossalari tekshirilgan, ularning yalpi formulasi va molekulyar og'irligi aniqlangan;

ishqoriy yer metall ionlarini aniqlashda ISE larning tarkibi 32% PVX, 5% ionofor va 63% plastifikatordan iborat hamda qalinligi 0,4-0,6 mm membranalariga mos kelganda yuqori sezgirlik va selektivlikka ega bo'lishi isbotlangan;

ishlab chiqilgan ISE larning aniqlash diapazoni, qiyalik funksiyasi, javob vaqti, xizmat muddati, aniqlash chegarasi tekshirilgan va ionlarni ekspress nazorat qilish imkoniyatlari aniqlangan;

ilk bor noorganik ionlar ishtirokida Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2} ionlariga nisbatan FMK asosidagi ISE larning selektivligi baholangan. Elektroaktiv birikmalar tarkibi va ular membranalarining selektivligi o'rtasidagi bog'liqlik isbotlangan;

ISE lar yordamida oqova, yer osti va yer usti suvlari tarkibida Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2} ionlarini aniqlash usullari ishlab chiqilgan hamda Samarqand viloyatidagi Qo'shrabot, Pstdarg'om, Nurobod va Payariq tumanlaridagi ichimlik suvi tarkibidagi ingrediyentlar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishqoriy va ishqoriy yer metallarining FMK va kationlar asosida EFB sintezining metodikasi ishlab chiqilgan;

ISE tomonidan oqova, yer osti va yer usti suvlari tarkibidagi Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2} ionlarini aniqlash uchun ISE lar taklif qilingan. Bunda aniqlash xatosi 5% dan oshmasligi isbotlangan;

tabiiy va sanoat suvlarida ishqoriy va ishqoriy yer metallar ionlarini aniqlashning o'ziga xos analitik usullari ishlab chiqilgan;

ichimlik suvi tarkibidagi ishqoriy va ishqoriy yer metallar ionlari tahlili uchun ion selektiv elektrodlar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi IQ-spektroskopiya, rentgenofluoressent analiz, potensimetriya, spektrofotometriya kabi tahlilning zamonaviy usullari yordamida eksperimental natijalar olinganligi bilan, shuningdek, umumiy qabul qilingan standartlar asosida o'tkazilgan, "Kiritildi-topildi" usuli bilan asoslangan. Olingan natijalar matematik statistika usullari – Student va Fisher mezonlari bilan qayta ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geteropolikislotalar asosida elektrod faol birikmalar sintezi qonuniyatlarini aniqlanishi, ishqoriy va ishqoriy yer metallar ionlari hamda FMK asosida selektiv membranalar hosil qilish uchun optimal sharoitlarni tanlanganligi, yuqori sezuvchanlik, selektivlikka ega ISE larni ishlab chiqilganligi hamda ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaratilgan ion-selektiv elektrodni o'z ichiga olgan ishlab chiqilgan usullardan Mg^{+2} hamda II analitik guruh kationlari (Ca^{+2} , Sr^{+2} va Ba^{+2}) miqdorini turli sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy obyektlar, ichimlik va oqova suvlari tarkibidan samarali aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishqoriy yer metallarining tezkor nazorati uchun fosfornomolibdenli ionoforlar yordamida ion selektiv elektrodlar ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

kalsiy, stronsiy va magniy selektiv elektrodlar "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning ekologik laboratoriyasida amaliyotiga joriy qilingan (Gazni qayta ishlash zavodi AJ ning 2023 yil 20 sentyabrdagi 819-GK-09-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori selektivlik va sezgirlik bilan Mg^{+2} , Ca^{+2} va Sr^{+2} ionlarini aniqlash imkoniyat yaratilgan.

Ion selektiv elektrodlar "GISSARNEFTGAZ" O'zbekiston–Shveysariya qo'shma korxonasida tarkibida kalsiy, stronsiy, magniy ionlari bo'lgan obyektlar analizida amaliyotga joriy etildi ("GISSARNEFTGAZ" QKning 2023 yil 19 sentyabrdagi 755-02GNG-09-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suvni isitish qozonxonalariga berilayotgan suvning qattiqligini yuqori sezgirlik va ekspresslikda aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 1 ta xalqaro va 6 ta milliy konferensiyalarda ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi materiallari asosida 3 ta ilmiy maqola, shu jumladan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 2 ta maqola respublika va 1 ta xalqaro jurnallarda chop etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan².

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati haqida ma’lumot berilgan, maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotni O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan va chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Ion selektiv suyuq membranali elektrodlar: zamonaviy holati, tendensiyalari, istiqbollari” deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar sharhiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ISE lar yordamida kationlar va anionlarni aniqlash. Anion-selektiv elektrodlar. Kation - selektiv elektrodlar. Ion-selektiv elektrodlarning selektivligini boshqarish yo‘llari, ion selektiv elektrodlarning membranalarini o‘zgartirish uchun ionli suyuqliklarni qo‘llash bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilingan. Adabiyotlarning tahlili asosida tadqiqotning maqsadi, vazifalari va obyekti tanlangan.

Dissertatsiyaning “Ishqoriy yer metallarining tezkor nazorati uchun fosfornomolibdenli ionoforlar tarkibini ishlab chiqish va tadqiq etish” deb nomlangan ikkinchi bobida ishni bajarishda foydalanilgan ishda qo‘llaniladigan reagentlar va asboblarni to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan, fosfornomolibden kislotaning (FMK) sintezi va tadqiqi FMK asosida EFB (ionoforlar) olish usullari va tadqiq qilish natijalari tavsiflangan. Tajribalardagi FMK ning uch asosligini hisobga olgan holda uning suvli eritmasiga metall xloridning suvli eritmasini 1:3 nisbati eritmadagi tuzining bir oz ortiqcha miqdori bilan qo‘shildi.

Tajribalar davomida FMK va metall tuzlarining 0,1 M standart eritmalaridan foydalanildi. 1-jadvalda ishqoriy yer metallari va FMK asosida o‘tkazilgan EFB sintezi natijalari keltirilgan.

1-jadval.


Ishqoriy yer metall tuzlari va FMK asosida EFB sintezi natijalari

EFB tarkibi	0,1M H ₃ PMO ₁₂ O ₄₀ ning hajmi	0,1 M tuz eritmasi		EFB ning unumi	
		tarkibi	hajmi	g	%
Ca ₃ ([PMO ₁₂ O ₄₀]) ₂	53,1	CaCl ₂		9,8496	98,5
Mg ₃ ([PMO ₁₂ O ₄₀]) ₂	53,8	MgCl ₂	80,7	9,7781	97,8
Sr ₃ ([PMO ₁₂ O ₄₀]) ₂	52,8	SrCl ₂	76,3	9,8097	98,1
Ba ₃ ([PMO ₁₂ O ₄₀]) ₂	51,6	BaCl ₂	154,7	9,9211	99,2

² Kimyo fanlari doktori, prof. E.Abduraxmanovga dissertatsiya ishi bajarilishi davomida bergan ilmiy maslahatlari uchun minnatdorlik bildirdi.


Fosfornomolibden kislota va metall tuzlari asosida ISE uchun EFB sintezi dissertatsiyaning 2-bobida keltirilgan usulda amalga oshirildi. Sintez qilingan elektrod aktiv birikmalarning element tarkibini aniqlash uchun rentgen-flyuoesent, fotokolorimetrik va gravimetrik analiz usullaridan foydalanildi. Bunda olingan natijalar nazariy hisoblash natijalariga to‘liq mos keladi. EFB ning rentgen-flyuoesent analizi Rigaku NEX-DE spektrometrida o‘tkazildi va bunda namuna tarkibidan molibden, fosfor va ba’zi katta atom massasiga ega metallar aniqlangan. Olingan $\text{Ca}_3(\text{PMo}_{12}\text{O}_{40})_2$ tarkibli EFB ning spektri 1-rasmda keltirilgan.

Olingan EFB dagi metall ionlarining miqdori gravimetrik, fotokolorimetrik va kompleksometrik usullar bilan aniqlandi.



1-rasm. Energiya dispersli rentgen-flyuoesent spektrometr yordamida olingan $\text{Ca}_3(\text{PMo}_{12}\text{O}_{40})_2$ tarkibga ega EFB spektri.

Sintez qilingan dodekamolibdafosfatlar tarkibidagi adsorbsiyalangan namlik va kristallogidrat miqdorini aniqlashda termogravimetrik va namunalarni turli haroratlarda doimiy massagacha qizdirish usulidan foydalanildi. Barcha sintez qilingan namunalarni termogravimetrik analizida asosan 2 ta sakrash kuzatilgan bo‘lib ulardan birinchisi 95-105°C ga ikkinchisi esa 110-125°C ga to‘g‘ri keladi. Tajribalarda barcha namunalar 105 va 125°C haroratlarda doimiy vaznga kelguncha qiqdirildi. Tekshirish uchun ≈ 1 gramm namuna analitik tarozida 0,0001 g aniqlikda tortib olindi. Sintez qilingan metall dodekamolibdenfosfatlari namunalari og‘irligining 105°C haroratda doimiy og‘irlik qiymatigacha kamayishi boshlang‘ich namuna og‘irligining 2,5-3,5 % ini tashkil etdi. Termogravimetrik analizda ikkinchi sakrash (massaning o‘zgarishi) 10-125°C oralig‘ida kuzatildi. Sintez qilingan dodekamolibdenfosfatlarini 125°C da issiqlik bilan ishlov berishda olingan natijalardan sintez qilingan elektrod faol birikmaning bir moliga mos keladigan suvning miqdori topildi va ularning quyidagi formulari aniqlandi:




Kalsiy dodekamolibdenfosfat $\text{Ca}_3(\text{HMo}_{12}\text{O}_{40})_2 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$;

Stronsiy dodekamolibdenfosfat $\text{Sr}_3(\text{HMo}_{12}\text{O}_{40})_2 \cdot 8,5\text{H}_2\text{O}$.


Ca, Sr, Mg va Ba ionlarining ion selektiv elektrodi uchun membrana kompozitsiyalarini ishlab chiqish va o'rganish. Ishda sintez qilib olingan ISE ning membranasi plastifitsirlangan polimer plyonka (matritsa) bo'lib, unga tegishli ionofor birikma kiritilgan. Ionofor sifatida EFB va metall xloridi asosida sintez qilingan elektrod faol birikmalardan foydalanilgan. Polimer matritsasi polivinilxlorid (PVX) va plastifikator dioktilftalat (DOF) ni tetragidrofuran (TGF) da eritib tayyorlangan. Olingan plyonka tarkibidagi EFB membrana massasining 5 % ini tashkil etadi. PVX-plastifikatorning nisbati og'irligi bo'yicha 1:2 ga teng.

Membranani olish uchun 20 ml hajmli byuksda tarkibi 32 % PVX kukuni, 5 % ionofor va 63 % plastifikator aralashmasi tetragidrofuranda eritildi. Eritma diametri 10 sm bo'lgan Petri kosachasiga yoki balandligi taxminan 2 sm va diametri 4-4,5 sm bo'lgan dumaloq teflon silindrlarga quyiladi va TGF to'liq bug'lanib ketguncha (24 soatga) qoldirildi. Natijada 0,3-0,5 mm qalinlikdagi elastik shaffof membrana hosil bo'ldi. Keyin kerakli o'lchamdagi disklar elastik plyonkadan (membranadan) kesilib, PVX naylarining uchlariga TGF dagi PVX ning yopishqoq eritmasi bo'lgan yelim bilan yopishtirildi. Olingan: $\text{Sr}_3[\text{PMo}_{12}\text{O}_{40}]_2$, $\text{Mg}_3[\text{PMo}_{12}\text{O}_{40}]_2$, $\text{Ba}_3[\text{PMo}_{12}\text{O}_{40}]_2$ tarkibli plyonkalarining ko'rinishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mg (a), Sr (b) va Ba (v) selektiv elektrod uchun membranalarning ko'rinishi.

Ishlab chiqiladigan ISE lar aniqlanayotgan ionlarga nisbatan yuqori sezgirlik va selektivlik, elektrod funksiyalarining keng oralig'i, minimal javob vaqti va maksimal ishlash muddati kabi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Elektrodning sezgirligi ionni aniqlashning minimal chegarasi deb ataladigan qiymat bilan tavsiflanadi, selektivligi esa elektrod kamroq sezgir bo'lgan boshqa ionlar ishtirokida ionlarni aniqlash imkoniyati mavjudligini anglatadi. Tajribalar davomida ishlab chiqiladigan ISE larning ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ularning 5 tadan tajribaviy namunalari tayyorlandi. Ishlab chiqilgan ion selektiv elektrodning ko'rinishi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Kalsiy (1), stronsiy (2) va magniy (3) selektiv elektrodning tashqi ko‘rinishi.

“Ishqoriy yer metall ionlarini aniqlovchi ISE larni ishlab chiqish va ularning elektrokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash” deb nomlangan uchinchi bobda ISE larning ko‘rsatkichlarini tekshirish 25°C da konsentratsiyasi 10^{-2} mol/l bo‘lgan eritmalarda olib borildi.

Dastlabki tekshirish natijasida aniqlangan elektrod potentsiali qiymatlari 2 jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval.

Turli ionoforli ISE larning 10^{-2} mol/l konsentratsiyali ishqoriy yer metall ioniga mos signal qiymatlari ($n=5$, $P=0,95$, $C_{\text{ion}}=10^{-2}$ mol/l)


T/r	ISM tarkibi	Aniqlanadigan ion	Aniqlanadigan ionga mos elektrodning signali, E, mV		
			$x \pm \Delta x$	S	$Sr10^2$
1	Ca^{2+} -FMK	Ca^{2+}	$60,4 \pm 0,2$	0,2	0,33
2	Ba^{2+} -FMK	Ba^{2+}	$60,8 \pm 0,5$	0,5	0,83
3	Sr^{2+} -FMK	Sr^{2+}	$71,3 \pm 0,6$	0,6	0,85
4	Mg^{2+} -FMK	Mg^{2+}	$73,1 \pm 0,7$	0,7	0,96

2-jadvaldan ishlab chiqilgan ISE larning tegishli metall ionlarining 10^{-2} mol/l konsentratsiyalariga mos signal qiymatlari 60-73 mV ga teng bo‘lib, bir xil konsentratsiyali ionlarga mos keluvchi signalning eng katta qiymati Mg^{2+} -FMK tarkibli ISE ga xos ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ishni bajarish davomida turli ishqoriy-yer metall ionlari uchun yuqori sezgir va selektiv elektrodlar ishlab chiqarish maqsadida TFB, TBA, FMK, FMK asosida olingan ionoforlarning xossalari Ca^{2+} , Ba^{2+} , Sr^{2+} va Mg^{2+} ionlarning 10^{-1} – 10^{-3} mol/l konsentratsiyali eritmalarida o‘rganildi.

Ushbu tadqiqot natijalari ishqoriy yer metall ionlari uchun sezgirligi eng yuqori bo‘lgan elektrod Ca^{2+} - FMK, Ba^{2+} - FMK, Sr^{2+} - FMK va Mg^{2+} -FMK tarkibli ionoforlar asosida ishlab chiqilgan elektrodga mos kelishini ko‘rsatdi. Shu sababli ishqoriy yer metallar ionlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan keyingi

barcha tajribalarda Ca^{2+} - FMK, Ba^{2+} - FMK, Sr^{2+} - FMK va Mg^{2+} - FMK asosida ishlab chiqilgan ISE larning xossalari o'rganildi.

Elektrod funksiyasining bajarilish intervali (Nernst mintaqasi) tekshiriladigan ionning ishlab chiqilgan elektrodi yordamida aniqlash diapazonida signalning konsentratsiyaga bog'liqligini to'g'ri chiziqli oralig'idan iborat. Ishlab chiqilgan ISE lar signalining eritmada aniqlanuvchi ion konsentratsiyasiga bog'liqligi 4-rasmlarda keltirilgan bo'lib, undan ishlab chiqilgan elektrodlar ionofor tarkibiga mos ravishda ishqoriy yer metall ionlarini konsentratsiyaning 10^{-1} mol/l dan quyidagi qiymatlargacha aniqlash imkoniyatlariga ega ekanligini ko'ramiz.




4-rasm. Ishqoriy yer metallari ionlarini aniqlovchi metall ion va FMK asosida ishlab chiqilgan ISE ning elektrod funksiyasini bajarilish intervali.

4-rasmda keltirilgan natijalardan FMK asosida ishlab chiqilgan ISE ning elektrod funksiyasining bajarilish intervali pC_A ning qiymati mos ravishda: Ba^{2+} -FMK uchun 4,76 mol/l; Sr^{2+} -FMK uchun 5,91 mol/l; Ba^{2+} -FMK uchun 5,05 mol/l va Mg^{2+} -FMK uchun 5,30 mol/l. ga mos kelishini ko'ramiz. Bunda elektrod funksiyasining to'g'ri chiziqli diapazonining eng past qiymati (5,91 mol/l) Sr^{2+} -FMK tarkibli membrana asosida ishlab chiqilgan ISE ga mos kelishi kuzatildi. ISE ning xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlaridan yana biri bu uning elektrod funksiyasining tikligi (qiyaligi)dir.

Elektrod funksiyasining tikligi (qiyaligi). Ishqoriy yer metall ionlariga selektiv elektrod funksiyasidan ($\Delta E=X$)ga, ($\Delta pA=U$) ga teng ekanligini bilgan holda uning qiyaligini: $K=X/U$, (3.11) bo'yicha hisoblab topamiz. Nernst koeffitsiyentiga ko'ra ikki valentli ionlarda nazariy hisoblangan qiyalik qiymati 29 mV ga teng. Elektrod funksiyasining qiyalik foizi: $A\% = K/29 \cdot 100$ (3.12) tenglama bo'yicha aniqlanadi.

Bariy va kalsiy saqlagan memranalar asosida ishlab chiqilgan elektrodlar uchun elektrod funksiyasining qiyaligini o'rganish natijalari 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Ba^{2+} -FMK va Ca^{2+} -FMK tarkibli ISE lar uchun elektrod funksiyasining qiyaligi.

Ba^{2+} -FMK uchun $\Delta E/\Delta pA = 96/3,8 = 25,3$. Qiyalik foizi $(25,3/29)100 = 87,2$ va Ca^{2+} -FMK uchun $114/4,4 = 25,9$. Qiyalik foizi $(25,9/29)100 = 89,3$

ISE lar uchun elektrod funksiyasining qiyaligini konsentratsiyasi 10^{-2} mol/l bo'lgan eritma misolida aniqlash natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Ishlab chiqilgan ISE larni tegishli ionlarga mos keluvchi elektrod funksiyasining qiyalik kattaligi qiymatlari ($n=5, P=0,95$)

T/r	Ionofor tarkibi	Aniqlanuvchi ion	Elektrod funksiyasining qiyalik kattaligi qiymati ($x \pm \Delta x$), mV	Elektrod funksiyasining qiyalik foizi qiymati ($x \pm \Delta x$), %
1.	Ba^{2+} -FMK	Ba^{2+}	$25,0 \pm 0,1$	$87,2 \pm 0,3$
2.	Ca^{2+} -FMK	Ca^{2+}	$25,9 \pm 0,3$	$89,3 \pm 0,6$
3.	Sr^{2+} -FMK	Sr^{2+}	$27,4 \pm 0,2$	$94,4 \pm 0,5$
4.	Mg^{2+} -FMK	Mg^{2+}	$26,2 \pm 0,3$	$90,3 \pm 0,7$

Jadvaldan elektrod funksiyasining qiyalik kattaligi qiymatining 90,3% ga teng eng yuqori ko'rsatkichi Mg^{2+} -FMK ga va shu funksiyaning eng past 87,2 % ga teng qiymati Ba^{2+} -FMK ga mos kelishini ko'ramiz.

Potensial aniqlovchi ionni aniqlash chegarasi ($C_{min,p}$) - berilgan ISE yordamida berilgan ishonchlilik bilan aniqlangan ionning minimal konsentratsiyasi. $C_{min,p}$ ni aniqlash uchun E-pA bog'liqlikning chiziqli kesimlari ekstrapolyatsiya qilinadi. Olingan kesishish nuqtasi absissa o'qi bo'yicha $-\lg C_{min,p}$ qiymatiga mos keladi. ISE lar yordamida tegishli ionlarni aniqlashning quyi chegarasini aniqlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval.

Ishlab chiqilgan ionoforlar asosida tayyorlangan ISE-lar ishqoriy yer metall ionlarini aniqlashining quyi chegarasi

t/r	Ionofor tarkibi	Aniqlanadigan ion	Aniqlanadigan ionning eng past chegarasi	
			$x \pm \Delta x$	$Sr10^2$
1	Ca^{2+} -FMK	Ca^{2+}	$5,6 \pm 0,2$	2,87
2	Ba^{2+} -FMK	Ba^{2+}	$5,7 \pm 0,1$	1,41
3	Sr^{2+} -FMK	Sr^{2+}	$5,5 \pm 0,3$	2,39
4	Mg^{2+} -FMK	Mg^{2+}	$5,0 \pm 0,1$	1,61

Selektivlik koeffitsiyenti (K_A, B) elektrodning begona ionlar ishtirokida ishlash imkoniyatini ko'rsatauvchi kattalik. Ishda qo'llanilgan xalaqit qiluvchi ionning doimiy konsentratsiyasi usuliga ko'ra selektivlik koeffitsiyentini aniqlash uchun asosiy ionning konsentratsiyasi 10^{-6} dan 10^{-1} mol/l gacha o'zgaradigan qator eritmalari tayyorlanadi. Bunda xalaqit qiluvchi ionning barcha holatda o'zgaras - 10^{-3} mol/l holida saqlandi.


ISE ning xalaqit qiluvchi ionga nisbatan selektivlik koeffitsiyenti EYuK xalaqit qiluvchi ionning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmasdan qolgan nuqtada (rasm 5) aniqlanadigan ionning minimal konsentratsiyasini xalaqit qiluvchi ion konsentratsiyasiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_{A/B} = C_A / C_B \quad (1)$$

bu yerda C_A -aniqlanadigan ionni N nuqtadagi konsentratsiyasi, mol/l; C_B -xalaqit qiluvchi ionning konsentratsiyasi (10^{-3} mol/l). Mg^{2+} -FMK membranali ISE signalining aniqlanadigan ion bilan mavjud bo'luvchi bo'lgan xalaqit qiluvchi qo'shimchalar Sr^{2+} va Ca^{2+} ishtirokida eritmadagi Mg^{2+} miqdoriga bog'liqligini o'rganish natijalari 6-rasmda keltirilgan.

Keltirilgan natijalardan ishlab chiqilgan elektrodlar xalaqit qiluvchi komponentlar ishtirokida asosiy komponentni yuqori selektivlikda aniqlashini ko'ramiz.

Ishlab chiqilgan barcha ISE larning selektivlik koeffitsiyentlarini aniqlash natijalari ularni xalaqit qiluvchi komponentlar ishtirokida asosiy komponentga nisbatan yuqori selektivlikni ta'minlashini ko'rsatdi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan elektrodlar ishqoriy yer metallarini suvli eritmalaridan aniqlash jarayonida yuqori sezgirli va selektivligi bilan xarakterlanadi.



6-rasm. Mg²⁺-FMK membranali ISE signalining Sr²⁺ va Ca²⁺ ionlari ishtirokida eritmadagi Mg²⁺ ioni konsentratsiyasiga bog'liqligi.

Ionselektiv elektrod sezgirligiga haroratning ta'siri. ISE ning sezgirligi va ekspressligi tajriba haroratiga bog'liq. Ion selektiv materialning optimal harorati elektrodning aniqlanadigan ionga nisbatan maksimal sezgirligi bilan belgilanadi. ISE sezgirligini haroratga bog'liqligini o'rganish 5,0°C dan 50,0°C gacha oralig'ida 5,0°C farq bilan amalga oshirildi. Barcha tajribalar ($C_{Mg^{2+}}=10^{-3}$ mol/l da) 5 martadan takrorlandi va o'tkazilgan tadqiqot natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

Mg²⁺-FMK elektrodi signalining haroratga bog'liqligi

Tajriba harorati, °C	Signal, mV		
	$x \pm \Delta x$,	S	Sr · 10 ²
5	43,2 ± 0,5	0,42	0,98
10	44,2 ± 1,0	0,85	1,92
20	44,6 ± 0,5	0,42	0,95
30	44,4 ± 0,4	0,34	0,77
40	44,3 ± 0,8	0,68	1,52
45	45,9 ± 1,0	0,85	1,88

Signalni haroratga bog'liqligini o'rganish natijalaridan 10,0-40,0°C diapazonida ISE lar yordamida ionlarni aniqlashda signalning barqarorligini ta'minlanishi kuzatildi. Mg²⁺ ni aniqlovchi ISE ning signalini haroratga bog'liqligi 5-jadvalda keltirilgan. Demak haroratning 10,0 -40,0°C oralig'ida ishlab chiqilgan ISE ruxsat etilgan xato diapazonida tegishli ionlarni aniqlashga imkon beradi.

Ionselektiv elektrodning dinamik kattaliklarini aniqlash. Elektrodning dinamik xususiyatlarini tekshirish uning o'tish vaqtlarini (tayyorlik, signalning maksimal qiymatiga erishish va boshlang'ich-nol nuqtaga qaytish) o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tarkibida 10⁻² mol/l aniqlanadigan ion bo'lgan eritmalarda parallel ravishda

beshta ISE larda olib borildi. Tajribalar ishlab chiqilgan elektrodlar uchun signalning boshlanish vaqti ($t_{0,1}$) 9-12 s, doimiy vaqt ($t_{0,65}$) 32-53 s dan oshmaydi va ko'rsatkichlarni belgilash vaqti ($t_{0,9}$) 42-70 s, jami o'lchash vaqti (t_p) 53-88 s ga yetishini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumot ishlab chiqilgan elektrod yordamida ionni ekspress aniqlash imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.

Elektrodning ishlash muddati. ISE ning ishlash muddatini aniqlash Ca^{2+} selektiv elektrod misolida ko'rib chiqildi. Buning uchun turli konsentratsiyali $CaCl_2$ eritmalaridagi potentsiallar uzoq vaqt davomida (taxminan 1,5 oy) qayd etib borildi. Bu vaqt ichida funksiyaning qiyaligi Ca^{2+} uchun 25,1 mV/pC dan 23,8 mV/pS gacha kamaydi.

Ionselektiv elektrodlar signalining takrorlanuvchanligi va barqarorligi. Takrorlanuvchanlik va barqarorlik elektrod sezgir elementi sifatida qo'llaniladigan materialni baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Bizning ishimizda PVX+(metall ioni-FMK) asosidagi elektrod signalining takrorlanuvchanligi tarkibida 10^{-2} mol/l kalsiy ioni bo'lgan eritmalarda o'rganildi. O'tkazilgan ikki oylik tajribalarda ishlab chiqilgan ISE larning signali sezilarli darajada o'zgarishga uchramadi. Masalan, tajriba boshida Ba^{+2} -FMK ning signalini 60,8 dan 59,9 mV gacha pasayishi kuzatildi va qolgan vaqt davomida signal yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato chegarasida barqaror saqlandi. O'rganilgan vaqt oralig'i uchun elektrod signalining maksimal chetlanishi (Δt_g) 0,9 ga teng (6-jadval).

6-jadval

Ba^{+2} -FMK asosidagi elektrod signalining maksimal chetlanishi.

Elektrod	$U_{max,}$ mV	$U_{min,}$ mV	Δt_g	GOST bo'yicha
$S_{Ba^{+2}} = 10^{-2}$ mol/l	60,8	59,9	0,9	5,0

Shunday qilib, o'tkazilgan tajribalar ishlab chiqilgan elektrod signalining barqaror va takrorlanuvchanligini ko'rsatadi. Demak, ushbu elektrod xona haroratida Ba^{+2} konsentratsiyasini takroriy aniqlash uchun uzoq vaqt davomida ishlatilishi mumkin.

Ishlab chiqilgan ion selektiv elektrodning tabiiy suvlar va boshqa analiz obyektlari tarkibidagi ishqoriy yer metallari ionlarini aniqlashda qo'llanilishi deb nomlangan to'rtinchi bobda daryo va ko'l suvlarida kalsiy miqdori ko'p hollarda 10 dan 100 mg/dm³ gacha o'zgaradi. Baliqchilik suv havzalari suvida kalsiyning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi (REM) 180 mg/dm³ ni tashkil qiladi, ichimlik suvi havzalari uchun REM o'rnatilmagan.

Yer osti va yer usti suvlari tarkibidan kalsiy va magniy ionlarining miqdorini aniqlashda kimyoviy (trilon-B bilan titrlash), potentsiometrik va alanga fotometrik usullari qo'llaniladi.

Obyektlar tarkibidagi kalsiy, magniy, bariy va stronsiy ionlarining miqdorini ionometrik va kimyoviy usullarda aniqlash uchun analitik namunalar Samarqand viloyatining Nurobod, Qo'shrabot, Pastdarg'om, Urgut va Payariq tumanlari hududlarida joylashgan qishloqlarning yer osti quduq va artezian suvlari hamda ariq suvlaridan olindi. Yer osti suvlarining chuqurliklari 20 metrdan 750 metrgacha bo'lib, ulardan analitik namunalar yilning turli fasllarida olingan. Yer osti va yer usti suvlari tarkibidan ishqoriy yer metallari miqdorini ISE yordamida aniqlash

natijalari kimyoviy usullarda olingan natijalarga xato chegarasida mos keladi. 7-jadvalda Qo'shrabot tumani Changal qishlog'i quduq suvidan ishqoriy yer metallarini aniqlash natijalari keltirilgan.

7-jadval

Qo'shrabot tumani quduq suvi tarkibini tekshirish natijalari.

ISE membranasi tarkibi	ion	Ionning aniqlangan miqdori, mg/l		
		$x \pm \Delta x$	S	Sr10 ²
Ca ²⁺ -FMK	Ca ²⁺	37,21±0,05	0,041	0,11
Mg ²⁺ -MK	Mg ²⁺	16,30±0,02	0,016	0,10
Ba ²⁺ -FMK	Ba ²⁺	0,03±0,01	0,008	6,82
Sr ²⁺ -FMK	Sr ²⁺	0,22±0,01	0,008	3,66

Jadvaldan quduq suvi tarkibidagi kalsiy ionlarining miqdori boshqa ishqoriy yer metall ionlari miqdoridan ancha yuqori bo'lib 37,21 mg/l ni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday FMK asosida ishlab chiqilgan Mg²⁺, Sr²⁺, Ba²⁺ selektiv elektrodlardan foydalanib olingan tajriba natijalari. Shu ionlarning quduq suvidagi miqdori REM qiymatlaridan yuqori emasligini ko'rsatdi.

8-jadvaldagi Samarqand viloyati Qo'shrabot, Payariq, Nurobod, Pastdarg'om tumanlari aholi punktlaridan olingan ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy va magniy ionlarini aniqlash natijalaridan kalsiyning eng yuqori miqdori (41,36 mg/l) Nurobod suvida, magniyning eng yuqori miqdori (24,21mg/l) Qorayantoq suvida mavjudligini ko'ramiz.

8-jadval.

Samarqand viloyatining turli aholi punktlaridan olingan ichimlik suvlari tarkibidan kalsiy va magniy ionlarini aniqlash natijalari (n=5, P=0.95).

Tekshirilgan suv manbasi manzili	Suvdagi ionning aniqlangan miqdori, mg/l					
	Kalsiy			Magniy		
	$x \pm \Delta x$	S	Sr10 ²	$x \pm \Delta x$	S	Sr 10 ²
Qo'tirbuloq	27,90±0,03	0,024	0,09	13,00±0,01	0,008	0,06
Oqqo'rg'on	31,15±0,05	0,041	0,13	8,90±0,01	0,008	0,09
Chimboyobod	40,89±0,03	0,024	0,06	19,70±0,02	0,016	0,08
Nurobod	41,36±0,04	0,032	0,08	19,20±0,02	0,016	0,08
Qorayantoq-1	39,21±0,05	0,041	0,11	23,16±0,03	0,022	0,09
Qorayantoq-2	37,13±0,05	0,041	0,11	24,21±0,01	0,009	0,03
Mirzadagal	40,81±0,06	0,048	0,12	22,31±0,02	0,016	0,07

Ishlab chiqilgan elektrodlarni analizning keng qo'llaniladigan usullari bilan solishtirish maqsadida vodaprovod suvi tarkibidan kalsiy va magniy ionlarining miqdori kimyoviy (kompleksonometrik titrlash), elektrokimyoviy (ishlab chiqilgan ISE yordamida) va alanga fotometrik usullarida o'tkazildi. 9- jadvalda vodaprovod suvi tarkibidan kalsiy va magniy ionlari miqdorini turli usullarda aniqlash natijalari keltirilgan.

9-jadval.

Vodaprovod suvi tarkibidan kalsiy va magniy ionlarini turli usullarda aniqlash natijalari (n=5, P= 0,95)

Aniqlanadigan ion	Aniqlanadigan ionning miqdori, mg/l								
	Kimyoviy usul			Elektrokimyoviy usul – ISE			Alanga fotometrik usul		
	x±Δx	S	Sr10 ²	x±Δx	S	Sr10 ²	x±Δx	S	Sr10 ²
Ca ²⁺	34,97±0,3	0,241	0,69	34,18±0,3	0,161	0,46	35,23±0,3	0,241	0,69
Mg ²⁺	16,23±0,1	0,085	0,49	16,02±0,2	0,081	0,49	16,63±0,1	0,089	0,50

Jadvaldan ishlab chiqilgan elektrodni o‘z ko‘rsatkichlari bo‘yicha zamonaviy optik va titrimetrik usullardan qolishmasligini ko‘ramiz. Jadvalda keltirilgan miqdoriy aniqlash natijalari har 3 ta usulda ham bir-biriga mos keladi. Natijalarning ishonchlilik oralig‘i va nisbiy standart chetlanish qiymatlari ham ruxsat etilgan me‘yor darajasiga mos keladi.

Quyidagi 10-jadvalda esa ba‘zi sabzavot mahsulotlari tarkibidagi kalsiy va magniy ionlari miqdorini FMK asosidagi kalsiy va magniy selektiv elektrodlar yordamida ionometrik aniqlash natijalari keltirilgan.

10-jadval.

Sabzavotlar va poliz ekinlari tarkibidagi Ca²⁺ va Mg²⁺ miqdorini Ca²⁺-FMK va Mg²⁺-FMK tarkibli ISE lar yordamida aniqlash natijalari (n=3, P=0.95)

T/r	Aniqlanadigan ion	Ionning aniqlangan miqdori, mg/l					
		Kalsiy			Magniy		
		x±Δx	S	Sr10 ²	x±Δx	S	Sr10 ²
1	Karam	50.06±0,06	0,048	0,10	16.24±0,02	0,016	0,11
2	Kartoshka	11.7±0,01	0,008	0,07	22.6±0,02	0,016	0,07
3	Sabzi(sariq)	49.2±0,05	0,040	0,08	35.4±0,04	0,032	0,09
4	Sabzi(qizil)	52,4±0,04	0,032	0,06	37,6±0,05	0,04	0,11
5	Bodring	23.7±0,03	0,024	0,1	19.9±0,03	0,024	0,12
6	Piyoz	34,97±0,05	0,04	0,11	16.23±0,01	0,008	0,05
7	Qovun	17.7±0,03	0,024	0,14	13.6±0,02	0,016	0,12
8	Tarvuz	21.2±0,04	0,032	0,15	28.4±0,03	0,024	0,08
9	Lavlagi	38.7±0,03	0,024	0,06	29.9±0,02	0,016	0,05
10	Pomidor	16.7±0,01	0,008	0,05	23.9±0,02	0,016	0,07

10-jadvalda keltirilgan natijalardan Ca²⁺-FMK va Mg²⁺-FMK tarkibli ISE larni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibining nazoratida qo‘llab, ularning tarkibidan kalsiy va magniy ionlarini yuqori aniqlikda ekspress aniqlashda ishlatish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan ISE lar turli obyektlar tarkibidan ishqoriy yer metallari ionlari miqdorini analitik nazoratida keng qo‘llanilishi mumkin.

XULOSALAR

1. Plastifitsirlangan ISE membranalarida ionofor sifatida qo'llaniladigan bir qator geteropolibirikmalarining elektrokimyoviy xususiyatlari o'rganildi va ularning suvli muhitdagi ishqoriy yer metall ionlariga selektivligi va sezgirligi aniqlandi.

2. Ishqoriy yer metallari va fosfornomolibden kislotasi asosida kalsiy, bariy, stronsiy va magniy ionlari uchun ionoforlar sintez qilindi va ularning elektrokimyoviy tavsiflari o'rganildi.

3. Ionoforlardagi komponentlarning optimal nisbati tanlangan. Ishqoriy yer metallari uchun ionoforlarning tarkibi, sirt yuza tuzilishini hamda g'ovaklik darajasi termogravimetriya, element tahlili, IQ spektroskopiyasi, rentgen flyuoessent usullari bilan tahlil qilingan.

4. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan qonuniyatlar eng yaxshi elektroanalitik xususiyatlarga ega membrana kompozitsiyalarini tanlash va ular asosida ishqoriy yer metallari ionlarini miqdoriy aniqlash uchun ISE ishlab chiqish imkonini berdi.

5. Ishqoriy yer metallarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan ISE Samarqand viloyati tumanlari yer osti suvlari tarkibidan Mg^{+2} , Ca^{2+} , Ba^{2+} va Sr^{2+} ionlarini aniqlashda qo'llanilgan va natijada shu ionlarini aniqlash chegarasi bir tartibga pasaygan va aniqlashdagi potensial qiymatining takrorlanuvchanligi yaxshilangan.

6. Ishlab chiqilgan elektrodlarning elektroanalitik va ekspluatatsion xususiyatlari aniqlandi: potensialning chiziqli bog'liqligi intervallari. konsentratsiyalar, elektrodning qiyalik funksiyalari javob vaqti 20-60 sek, xizmat muddati, aniqlash chegaralari topildi.

7. Ishqoriy yer metallari va fosfornomolibden kislota asosidagi ISE ning Ca^{2+} , Ba^{2+} , Sr^{2+} va Mg^{2+} ionlariga sezgir, matritsaning kristallik xususiyatlari tufayli keltirilgan ionlarga nisbatan yuqori selektivlikka ega va ISE larning adabiyotlarda keltirilgan va tijoratda mavjud ko'pchiligiga nisbatan afzalliklarga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.K.02.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

РУЗИЕВ ЖАМШИД ЭРКИНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ИССЛЕДОВАНИЕ ИОНОСЕЛЕКТИВНЫХ
ЭЛЕКТРОДОВ НА ОСНОВЕ ФОСФОРНОМОЛИБДАТНЫХ
ИОНОФОРОВ ДЛЯ ОПЕРАТИВНОГО МОНИТОРИНГА
ЩЕЛОЧНОЗЕМЕЛЬНЫХ МЕТАЛЛОВ**

02.00.02 – Аналитическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии по химическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/K663.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) размещен на веб-странице Научного совета ik-kimyo.nuu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Абдурахманов Илхом Эргашбоевич
доктор химических наук, доцент

Официалны оппоненты: Сманова Зулайхо Асаналиевна
доктор химических наук, профессор

Султанов Марат Мирзаевич
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация: Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится «29» февраля 2024 г., в 13⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова по адресу: 140104, Самарканд, Университетский бульвар, 15, Институт Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (+99866)239-11-40, (факс: (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова за № 8, с которой можно ознакомиться в ИРЦ. (Фундаментальная библиотека СамГУ). Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «21» февраля 2024 г.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2024 г.)



А.М.Насимов
Председатель разового научного по
присуждению ученой степени, совета,
д.т.н., профессор

Ж.Р.Узоков
Ученый секретарь разового научного
совета по присуждению ученой
степени, PhD

Э.Абдурахмонов
Заместитель председателя разового
научного семинара при научном
совете по присуждению учёных
степеней д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

На глобальном уровне сегодняшняя промышленность и сельское хозяйство и их быстро развивающиеся страны, имеющие подразделения контроля и анализа, требуют разработки быстрых, высокоточных, относительно простых и экономически недорогих методов мониторинга ионов металлов. Благодаря достаточной стабильности ЭАС, полученных на основе фосфорномолибдатовых кислот, обеспечивается широкий диапазон линейности функций и низкий предел обнаружения катионов. В связи с этим большое значение имеет изучение закономерностей процесса получения высокоэффективных ИСЭ на основе гетерополикислот и определение оптимальных условий. В связи с этим актуальны методы определения Ca^{+2} , Mg^{+2} , Sr^{+2} , Ba^{+2} и др. ионов из состава промышленной и фармацевтической продукции, почвенных, подземных и поверхностных вод с использованием ионселективных электродов (ИСЭ) имеющее важное научное и практическое значение.

В мире проводятся многочисленные исследования по созданию высокоэффективных электроактивных веществ (ЭАС) для ИСЭ неорганических ионов. При этом особое внимание уделяется определению закономерностей процессов синтеза электроактивных соединений, используемых для контроля состава природных и технических объектов, а также ионов, содержащих в питьевых и сточных вод, разработке селективных пленок на основе полученных соединений и созданию чувствительных электродов, определяющих ионы различных металлов

В целях развития различных отраслей химической промышленности в республике уделяется большое внимание производству и внедрению в различные отрасли народного хозяйства новых видов методов и инструментов контроля, отвечающих современным требованиям, и осуществляется ряд масштабных мероприятий в области обеспечения внутреннего рынка импортозамещающими методами и инструментами с внедрением инновационных технологий.

В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан решены такие важные задачи, как «Производство продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, освоения новых видов продукции и технологий, обеспечения конкурентоспособности предприятий». При выполнении этих задач важное значение имеет создание и внедрение в практику современных, надежных, высокочувствительных, экономически доступных и селективных ионселективных электродов для контроля за ионами металлов в составе технологических отходов, продуктов питания, фармацевтических препаратов, подземных и поверхностных вод.

